

NAZAROV Otabek Ramazonovich
Yangi Asr Universiteti 2-kurs magistranti
E-mail: nazarovotabek9777@gmail.com

O'ZBEKISTONNING BMT MINBARIDAGI TASHABBUSLARI VA MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY HAMKORLIKNI CHUQURLASHTIRISHDA UNING O'RNI

ИНИЦИАТИВЫ УЗБЕКИСТАНА НА ТРИБУНЕ ООН И ЕГО РОЛЬ В УГЛУБЛЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

UZBEKISTAN'S INITIATIVES AT THE UN PLATFORM AND ITS ROLE IN DEEPENING REGIONAL COOPERATION IN CENTRAL ASIA

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining BMT minbaridan ilgari surayotgan tashabbuslari, xususan, BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan inson manfaatlarini ustuvor qo'yish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, barqaror rivojlanish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish masalalariga doir g'oyalar yoritilgan. Ushbu tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlab, mintaqaviy tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, BMT, Shavkat Mirziyoyev, 80-sessiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, xalqaro diplomatiya, mintaqaviy xavfsizlik.

Аннотация. В статье рассматриваются инициативы Республики Узбекистан, выдвинутые с трибуны ООН, в частности идеи, озвученные Президентом Шавкатом Мирзиёевым на 80-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН, касающиеся приоритета интересов человека, модернизации систем образования и здравоохранения, устойчивого развития и борьбы с изменением климата. Эти инициативы укрепляют международный авторитет Узбекистана и играют важную роль в обеспечении регионального мира и безопасности.

Ключевые слова: Узбекистан, ООН, Шавкат Мирзиёев, 80-я сессия, образование, здравоохранение, устойчивое развитие, изменение климата, международная дипломатия, региональная безопасность.

Abstract. This article explores Uzbekistan's initiatives presented at the United Nations, particularly those proposed by President Shavkat Mirziyoyev during the 80th session of the UN General Assembly. The discussion focuses on prioritizing human interests, modernizing education and healthcare systems, promoting sustainable development, and addressing climate change. These initiatives strengthen Uzbekistan's international standing and play a key role in ensuring regional peace and security.

Keywords: Uzbekistan, United Nations, Shavkat Mirziyoyev, 80th session, education, healthcare, sustainable development, climate change, international diplomacy, regional security.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro siyosiy maydonda faol ishtirok eta boshladi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatning tashqi siyosati ochiqlik, mintaqaviy hamkorlik va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanmoqda [1;25]. BMT minbarida ilgari surilgan tashabbuslar O'zbekistonning nafaqat ichki islohotlarga, balki global barqarorlikka ham e'tibor qaratayotganini ko'rsatadi. O'tgan davr mobaynida prezident BMT minbarida global muammolarga yechim topish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Shu davrda rasmiy Toshkent taklifi bilan 13 ta rezolyutsiya qabul qilinib, ularning yarmi Markaziy Osiyoga taalluqli bo'ldi. Tashabbuslar xalqaro forumlarda amaliy dastur va loyihalar orqali hayotga tatbiq etildi. 2018-yil 19-iyunda O'zbekiston tashabbusi bilan BMTda muhim rezolyutsiya qabul qilindi [2;41]. U Markaziy Osiyodagi jarayonlar va mintaqaviy rivojlanishga bag'ishlangan bo'lib, ko'plab BMT a'zo davlatlari muallif sifatida ishtirok etdi. Shu rezolyutsiyadan so'ng BMT qarorgohida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida jipslashuv sezildi. Har qanday yangi tashabbus ilgari surilganda, mintaqada davlatlari bir ovozdan uni qo'llab-quvvatladi, boshqa mamlakatlarni ham jalb etishda faol yordam berdi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining turli sessiyalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2017-yilgi 72-sessiya, 2020-yildagi pandemiya sabab onlayn tarzda o'tgan 75-sessiya, 2021-yildagi 76-sessiya, 2023-yilda o'tkazilgan 78-sessiyada hamda 2025-yilning 23-sentyabr 80-sessiyada qatnashdi. Shuningdek, O'zbekiston BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ham faol ishtirok etib, qator muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surgan. Umuman olganda, so'nggi yillarda 40 ga yaqin tashabbus taqdim etilgan. 2017–2021 yillar davomida O'zbekiston tashabbusi bilan 13 ta muhim rezolyutsiya qabul qilindi. Taqqoslash uchun, 1991–2016 yillar mobaynida atigi 2–3 ta rezolyutsiya tasdiqlangandi [4;44]. Muhimi, bu tashabbuslar faqat bayonot darajasida qolmay, turli dastur, loyiha, tadbir va anjumanlar orqali hayotga tatbiq etildi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi chiqishlari dunyo hamjamiyati e'tiborini tortdi. 2021–2025-yillar oralig'ida ilgari surilgan tashabbuslar qatorida quyidagilar alohida ahamiyat kasb etdi: “Markaziy Osiyoni yadrosiz zona sifatida mustahkamlash”, “Orolbo'yi hududi uchun inson xavfsizligi mintaqasi”, “Barqaror rivojlanish maqsadlarini milliy siyosatga integratsiya qilish” loyihalari [5;112].

O'zbekistonning BMTdagi eng muhim tashabbuslaridan biri — Orol dengizi fojiasini global ekologik muammo sifatida e'tirof etishga erishishdir. “Orolbo'yi — bu ekologik halokat emas, balki insoniyat uchun birdamlik sinovi”, deya ta'kidlagan [6;89] edi. 2018-yilda BMT tomonidan “Orolbo'yi mintaqasi uchun inson xavfsizligi zonasi” rezolyutsiyasi qabul qilindi [7;63]. Shavkat Mirziyoyev bu borada: Orolbo'yi ekologik fojiasini yumshatish bo'yicha ilgari surilgan “Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududiga aylantirish” tashabbusidir. Bu tashabbus asosida BMT bilan hamkorlikda maxsus platforma yaratildi va qator loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston tashabbuslari tufayli Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalar yangi bosqichga ko'tarildi. Jumladan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi chegara, savdo, transport va energetika sohasidagi muammolar

bosqichma-bosqich yechimini topmoqda. Bu jarayon mintaqaviy integratsiya va iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim omil bo'ldi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi siyosiy muloqot so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. O'zbekiston bu jarayonda markaziy integrator sifatida ishtirok etmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari” formati mintaqalar tarixida ilk bor mustahkam diplomatik platformani yaratdi [8;46]. BMT tomonidan belgilangan 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) doirasida O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlashni rivojlantirish, ekologiyani himoya qilish kabi yo'nalishlarda sezilarli natijalarga erishmoqda. Shavkat Mirziyoyev 2025-yilning 23-sentyabr 80-sessiyada O'zbekistonda kambag'allik darajasini so'nggi yillarda 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishilganini, bunga, avvalo, ta'lim va ilm-fan sohasini o'zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o'rinlari yaratish orqali erishilayotganini ta'kidladi. Bu borada xalqaro hamkorlik loyihalari orqali yangi texnologiyalar joriy etilmoqda. 80-sessiyada Shavkat Mirziyoyev fikrini davom ettirib, Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani, yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi esa 9 foizdan 42 foizga yetgani va eng asosiysi – o'qituvchi va ustozlik kasbining obro'si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida ko'rilayotganini ta'kidladi. Pedagoglarning o'zaro tajriba va bilim almashishi uchun yagona xalqaro platformani yaratish maqsadida O'zbekistonda Butunjahon professional ta'lim sammitini o'tkazishni taklif etdi. Shuningdek, mamlakatimizda ilg'or sog'liqni saqlash tizimi joriy qilinayotgani va Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh qarorgohida bizning tashabbusimiz bilan bolalar saratoni va boshqa og'ir kasalliklarga qarshi kurashga bag'ishlangan yuqori darajadagi tadbir o'tkazilishi, unga barcha xorijiy hamkorlarimizni taklif etishdan mamnunligini bildirdi.

O'zbekistonning tashqi siyosati insonparvar diplomatiyaga asoslanadi. Tinchlik, totuvlik, bag'rikenglik va o'zaro hurmat tamoyillarini

ilgari surish orqali mamlakat mintaqada siyosiy barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shmoqda. Shu jihatdan, Samarqandda o'tkazilgan "Markaziy Osiyo: Umumiy tarix va kelajak sari" xalqaro forumi madaniy diplomatiyaning yorqin namunasidir.

Global va mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish haqida gapirganda, albatta Afg'oniston to'g'risida to'xtalmaslik mumkin emas. Afg'on xalqining tinch va osuda hayotga bo'lgan intilishini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarurligini va bu davlatning yakkalanib qolishiga yo'l qo'ymaslik o'ta muhimligini ta'kidladi. Shavkat Mirziyoyev "Biz Afg'onistonda katta iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirmoqchimiz. Ushbu mamlakat orqali xalqaro transport va energetika koridorlarini rivojlantirish bo'yicha Tashkilotimizning alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz". Afg'onistonni xalqaro hamjamiyatdan ajratish emas, balki uni mintaqaviy iqtisodiy va transport loyihalariga qo'shish — barqarorlikning yagona yo'lidir. Shu nuqtai nazardan, "Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar" temir yo'li loyihasini BMT doirasida keng qo'llab-quvvatlash zarur.

Afg'oniston xalqining iqtisodiy tiklanishi — ekstremizmning oldini olishning eng samarali choralaridan biridir. Shu bois, xalqaro donorlar jamg'armalari orqali bu mamlakatda ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaytirilishi kerak. Shuningdek, Afg'onistonda ayollar va yoshlar ta'limiga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish orqali inson kapitalini tiklashga erishish mumkin.

Shavkat Mirziyoyev "G'azo sektoridagi tobora keskin yomonlashib borayotgan gumanitar inqirozni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Harbiy harakatlarni to'xtatish va siyosiy muzokaralarni davom ettirishga chaqiramiz. Biz BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, "ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyilini amalga oshirishning qat'iy tarafdorimiz" dedi. Jumladan, Prezident ilgari surgan "ikki davlatli yechim" tamoyili hozirgi mojaroda eng asosli diplomatik yo'ldir. Ammo bu g'oya amalga natija berishi uchun xalqaro hamjamiyat, xususan BMT va Yaqin Sharq kvarteti (BMT, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Rossiya) o'rtasida yangilangan muzokara mexanizmini yo'lga qo'yish lozim.

G'azodagi gumanitar inqirozni bartaraf etish uchun Markaziy Osiyo davlatlari ham o'zining

insonparvarlik yordamini muntazam yo'lga qo'yishi mumkin. Bu nafaqat mintaqaviy birdamlik, balki O'zbekistonning "tinchlik diplomatiyasi" amalda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Falastin masalasini uzoq muddatli tinchlik yo'lga olib chiqish uchun xalqaro huquq normalariga qat'iy rioya etish va BMTning 1967-yilgi rezolyutsiyalarini qayta faollashtirish zarur.

Shavkat Mirziyoyev "Ukraina atrofidagi vaziyat ham barchani jiddiy tashvishga solmoqda. Bu muammoni diplomatik yo'llar bilan hal etish bo'yicha yuqori darajadagi muloqotlar boshlangani muhimdir" deb ta'kidladi. Prezidentning "faqat diplomatik yo'l bilan hal etish" g'oyasi bugungi kunda eng maqbul strategiyadir. Shu maqsadda, BMT doirasida "neytral vositachi davlatlar" ishtirokidagi yangi platforma (masalan, Istanbul yoki Toshkent formati) tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Mojarodan keyingi davrda Ukraina infratuzilmasini tiklashda xalqaro hamkorlikni tashkil etish — iqtisodiy xavfsizlik va Yevropa barqarorligi uchun muhim omil bo'ladi. O'zbekiston bu jarayonda texnik va tajriba almashish yo'nalishida o'z hissasini qo'shishi mumkin. Eng muhimi, BMT doirasida urushdan zarar ko'rgan bolalar, ayollar va qochqinlar uchun alohida xalqaro dastur yaratish taklifini ilgari surish ham dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasidagi nutqi mamlakatning inson qadrini ulug'lashga asoslangan siyosatini va xalqaro maydondagi faol diplomatik pozitsiyasini yaqqol namoyon etdi. Avvalo, davlatimiz rahbari O'zbekiston ichki siyosatida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ekologik xavfsizlik sohalaridagi ustuvor yo'nalishlarni BMT tribunasida xalqaro hamjamiyatga tanishtirdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim muhitini yaratish, yoshlarni kasbiy va innovatsion yo'nalishlarda tayyorlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezident tomonidan ilgari surilgan "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" hamda "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" g'oyalari aynan ilm, ma'rifat va kadrlar salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu tashabbuslar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan "Sifatli ta'lim" tamoyiliga to'liq mos keladi.

Sogʻliqni saqlash sohasida esa Oʻzbekiston pandemiyadan soʻnggi davrda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, hamda zamonaviy tibbiy infratuzilmani kengaytirish yoʻlida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Aholining sogʻlom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik tibbiyotga oʻtish siyosati xalq salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, ekologiya yoʻnalishida Orolboʻyi mintaqasida amalga oshirilayotgan xalqaro loyihalar, “Yashil makon” umumxalq harakati va iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish tashabbuslari Oʻzbekistonning global ekologik xavfsizlikni taʼminlashga qoʻshayotgan hissasining yaqqol isbotidir. Ushbu tashabbuslar BMT tomonidan ham eʼtirof etilib, Orolboʻyi hududi “Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar mintaqasi” deb eʼlon qilingan.

Xalqaro maydonda esa Prezident Shavkat Mirziyoyev Afgʻoniston, Gʻazo va Ukraina kabi global inqiroz oʻchoqlaridagi vaziyatni chuqur tahlil qilib, tinchlik, muloqot va adolatli yondashuv zarurligini taʼkidladi. Afgʻoniston boʻyicha Oʻzbekistonning pozitsiyasi aniq: bu mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlardan ajratib qoʻymaslik, xalqiga insonparvarlik yordami koʻrsatish, ayollar va yoshlarning taʼlim olish huquqini qoʻllab-quvvatlash zarur.

Gʻazo masalasida esa Prezident “bolalar hayoti va tinch aholining taqdiri siyosiy manfaatlardan ustun turishi kerak” deb, xalqaro hamjamiyatni zoʻravonlikni toʻxtatish va insoniy qadriyatlarga qaytishga daʼvat etdi. Ukraina mojarosiga nisbatan esa Oʻzbekiston suverenitet, hududiy yaxlitlik va xalqaro huquq meʼyorlariga hurmat tamoyiliga sodiqligini bildirdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston bugun nafaqat oʻz taraqqiyot modelini, balki global tinchlik, hamkorlik va inson qadri ustuvorligini ilgari surayotgan davlat sifatida shakllanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT minbaridagi nutqi – bu Yangi Oʻzbekiston tashqi siyosatining adolat, tinchlik, taraqqiyot va insonparvarlik gʻoyalariga tayanayotganining yorqin isbotidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning inson manfaatlari, mintaqaviy hamkorlik va ochiqlik siyosati konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan qoʻllab-quvvatlanmoqda [3; 38].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston strategiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2023. – B. 464.
2. Mirziyoyev Sh.M. BMTdagi nutqidan, 2021-yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Oʻzbekistonning tashqi siyosiy kursi. – Toshkent, 2024.
4. BMT Maʼlumot byulleteni, 2024-yil soni.
5. Uzbekistan at the UN. – New York, 2023.
6. Qodirov A. Oʻzbekiston tashqi siyosati: yangi yondashuvlar. – Toshkent, 2022.
7. UN General Assembly Resolution A/RES/73/297, 2018.
8. Rasulov B. Markaziy Osiyo: iqtisodiy integratsiya jarayonlari. – Toshkent, 2022.